

Taniqli navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Shuhrat Sirojiddinov “Har bir inson hayoti davomida o‘qishi shart bo‘lgan 10 kitob” tavsiya qiladi:

1. Nizomimulk, “Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk” pandnomasi
2. Mirkarim Osim, “Aljabrning tug‘ilishi” qissasi
3. Amriddin Berdimurodov, “Samarqand tarixidan tomchilar” kitobi
4. Xayriddin Sultonov, “Odamlardan tinglab hikoya” hikoyalar to‘plami
5. Mirmuhsin, “Temur Malik” romani
6. Ahmadali Asqarov, “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” monografiyasi
7. Usmon Azim, “So‘ngso‘zlar” asari
8. Fyodor Dostoyevskiy, “Hayotiy hikmatlar va tanbehlar to‘plami”
9. Cho‘lpon, “Kecha va kunduz” romani
10. Eshqobil Shukur, “Bobo so‘z izidan” kitobi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinov 1961-yil 23-iyulda Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Shuhrat Sirojiddinovning 300 dan ortiq ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlari e‘lon qilingan. Qator monografiyalari Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Jumladan, “Alisher Navoiy aqidalari”, “Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili”, “Mir ‘Alī Shīr Navā‘ī the Great”, “Navobaxsh baytlar jozibasi”, “Matnshunoslik saboqlari”, “O‘zbek matnshunosligi qirralari”, “Hijriy va milodiy yillarni o‘zaro tabdil qilish usullari”, “Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi”, “So‘fi Olloyor ilohiyoti”, “She‘riyatda inson ruhiy kamoloti talqini”, “Badiiy tarjima asoslari” kabi o‘nlab kitoblar muallifi. Sirojiddinov boshchiligida AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Hindiston, Buyuk Britaniya, Olmoniya, Afg‘oniston universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish ishlari olib borildi.

Professor Shuhrat Sirojiddinov qator mamlakatlarning faxriy doktorlik unvonlariga ham erishgan. Jumladan, u Ozarboyjon Fanlar akademiyasi faxriy doktori. Dobrolyubov nomidagi Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti

faxriy professori (Rossiya). Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro assotsiatsiyasining hamraisi (Koreya). New York Fanlar akademiyasi a'zosi. Kaliforniya Fanlar akademiyasi a'zosi. Yevrosiyo turkiy tadqiqotlar instituti ilmiy maslahatchisi (Koreya). Filologiya fanlari bo'yicha doktorlik ilmiy darajasini berish bo'yicha ilmiy kengash raisi (Toshkent, O'zbekiston). Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi doktorlik ilmiy darajasini berish bo'yicha kengashlar a'zosi. Chingiz Aytmatov nomidagi mukofot bilan taqdirlangan. "Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" monografiyasi uchun O'zbekiston Respublikasining Adabiyot sohasida 1-darajali Davlat mukofoti laureati (2013), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi unvoni (2021) bilan taqdirlangan.